




M. Jumaniyozova, A. Atajonova

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI
VA UNI TAYYORLASH**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

M. Jumaniyozova, A. Atajonova


**BITIRUV MALAKAVIY ISH VA UNI
TAYYORLASH**

**(5111700 - "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish" ta'lim
yo'nalishi talabalari uchun uslubiy ko'rsatma)**

Uslubiy ko'rsatma Urganch davlat universiteti Ilmiy-uslubiy ke-
ngashining (18.12.2013-yil) 3-son yig'ilish bayonnomasi bilan nashrga
tavsiya qilingan.

Urganch – 2014

Mualliflar



UDK: 378.46.4(072)

KBK: 74.202

J-87

M. Jumaniyozova, A. Atajonova. Bitiruv malakaviy ish va uni tayyorlash. Uslubiy ko'rsatma. Mas'ul muharrir **R. Yo'ldoshev.** O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo'limi, 2014. 36 bet.

KBK 74.202

Bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash bo'yicha metodik ko'rsatma 5141700 – Boshlang'ich ta'lim va sport va tarbiyaviy ish yo'nalishi bakalavrlari uchun mo'ljallangan.

Mazkur metodik ko'rsatmada shu yo'nalish bo'yicha bitkazuvchi talabalar tayyorlaydigan bitiruv malakaviy ishning maqsadi, unga qo'yilgan talab va vazifalar, ularni bajarish tartibi, mavzulari va ularni himoya qilishga tayyorlash, reja tuzish, adabiyotlardan foydalanish tartibi, bitiruv malakaviy ishini himoya qilish va rasmiylashtirish kabi bir qator masalalar bo'yicha aniq ko'rsatmalar o'z aksini topgan.

Metodik ko'rsatmadan oliy o'quv yurtlarining bitiruvchi bakalavrlari, metodistlar, professor-o'qituvchilar, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir

R. Yo'ldoshev, f. f. n., dots.

Taqrizchilar:

S. Ollaberganova, f. f. n., dots.,



I. Hajiyeva, f. f. n., dots.

ISBN: 978-9943-4033-8-3

© UrDU noshirlik bo'limi, 2014.

© M. Jumaniyozova, A. Atajonova.

**Bitiruv malakaviy ish va uni tayyorlash.
Uslubiy ko'rsatma.**



SO'ZBOSHI



O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasiga hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Xususan, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilganidek, o'quv-tarbiya jarayonining sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish; yuksak kasbiy, ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaratish ko'zda tutilgan. Bunda bakalavrlarni tayyorlashning ham alohida o'rni bor. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'rif berilishicha, bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

"Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish" bakalavriat yo'nalishida bajariladigan bitiruv malakaviy ishlar bo'lg'usi mutaxassisning ilmiy metodik tayyorgarligini baholovchi mezondir.

Talabalarning bitiruv malakaviy ishi oily ta'limda amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarining yakuni hamda talabalarning oliy o'quv yurtini bitirish oldidagi ta'limning eng so'nggi bosqichi hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishning samaradorligi va ilmiy-amaliy ahamiyati – uning bajarilish metodikasini bilishga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, ushbu qo'llanma bitiruv malakaviy ishlarni bajarishga bag'ishlangan bo'lib, unda bitiruv malakaviy ishlarning maqsad-vazifalari, mavzularni tayyorlash va ilmiy rahbar vazifalari, bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismlari va tuzilishi, uning mazmun-mohiyati, himoyaga olib chiqish va rasmiylashtirish kabi bir qator masalalar o'z aksini topgan.

Mazkur uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998-yil 31-dekabr 362-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi nizom hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlariga asosan tayyorlandi.

Mualliflar



UDK: 378
KBK: 74.202

1. Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari

Oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishidagi bitiruv malakaviy ish oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'limining yakuniy bosqichida kafedra tomonidan tayinlangan ilmiy rahbar yoki ilmiy maslahatchining topshirig'i va ko'rsatmasi asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladigan ilmiy-nazariy va metodik loyiha hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ish himoyasi bakalavr bitiruvchining yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi ko'rinishlaridan biridir. Shuningdek, bitiruv malakaviy ish talabaning o'z ixtisosligi bo'yicha egallagan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalari ko'lami va darajasini, bitiruvchining saviyasi va salohiyatini belgilovchi, mustaqil ilmiy, ijodiy tadqiqot ishidir.

Bitiruv malakaviy ish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining shunday ishlarga qo'yiladigan me'yoriy talablari asosida bajariladi.


Malakaviy ishini bajarishdan maqsad:

- talabalarning o'z ixtisosligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish;
- olingan bilimlarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash, pedagogik jarayonni ilmiy tadqiq qilishga o'rgatish;
- ijodiy ishlash, tadqiq qilinayotgan muammoning qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazgunga qadar muayyan ilmiy xulosalar chiqarish, qaror qabul qilishga bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish;
- zamonaviy ishlab chiqarish, fan va madaniyat, ta'limning rivojlanib borishi sharoitida talabalarning mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlash.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

1. Ta'limiy – talabalarda umumiy o'rta ta'limi muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

2. Tarbiyaviy – talabalarning o'quvchilar bilan yakka tartibda, mustaqil, kichik guruhlarda va jamoada ish olib borish jarayonida pedagogik odob-axloq, kasb madaniyati talablariga rioya qilish, o'quvchilar, kasbdoshlar va rahbariyat bilan o'zaro samarali muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirish.




3. Rivojlantiruvchi – talabalarning erkin fikrlash, mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish.

Bitiruv malakaviy ish quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ilmiy-metodik adabiyotlarda va pedagogik amaliyotda o'zining to'la yechimini topmagan muammoni tanlash yoki muayyan pedagogik muammoga yangicha yondashuv;
- ilmiy tadqiqot ishi elementlarining mavjudligi va tanlangan mavzuning dolzarbligi;
- matnni aniq qurish va mantiqiy ketma-ketlik asosida bayon etish;
- ishni pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalangan holda bajarish;
- har bir bob va bo'limni muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritish;
- malakaviy ishda ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning ishlarini tahlil qilish va ulardan o'rinli foydalanish;
- erishilgan natijalarga ko'ra, mustaqil xulosalarni shakllantirish, ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishni bajargandan keyin talaba quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarini egallashi kerak:

- umumiy o'rta ta'limi muassasalarida o'z ixtisosligiga oid fanlarni o'qitish jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat etish;
- egallangan nazariy bilimlarini pedagogik amaliyotga qo'llay olish;
- o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini va o'zlashtirishini baholash metodlarini samarali qo'llash;
- ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- ta'lim jarayonida faol ta'lim metodlarini o'rinli qo'llash;
- o'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish, o'tkazish va baholash;
- bajarilgan bitiruv malakaviy ish loyihasining ko'rsatmali taqdimotini ta'minlash;
- boshlang'ich ta'lim bo'yicha elektron ta'lim resurslari va uslubiy adabiyotlarini yaratish.



10. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

11. Boshlang'ich sinflarda "Tovushlar va harflar" bo'limini o'rganish yo'llari.

12. 1-sinfda o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi.

13. 4-sinfda matematikadan arifmetik amallarni o'rganish metodikasi.

14. Matematika va tabiat ta'lim sohalari bo'yicha integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari (3 – 4-sinf misolida).

15. Ona tili darslarida til materiallarini o'rganishda xalq og'zaki ijodi materiallaridan foydalanish

16. Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

17. Boshlang'ich sinfda axloqiy-estetik tarbiyaning pedagogik-psixologik xususiyatlari.

18. Interfaol metodlar va ulardan boshlang'ich sinf ona tili darslarida foydalanish.

19. 4-sinflarda ilmiy-ommabob maqolalarni o'rganish darslarini tashkil qilish va o'tkazish.



20. 3-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Zumrad bahor – bahri diling ochar" bo'limi materiallarni o'rganish orqali o'quvchilar nutqini o'stirish.



3. Bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik

Bitiruv malakaviy ishiga rahbar oliy o'quv yurtining ilmiy darajali professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari, umumta'lim maktabining yuqori malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan tayinlanadi.

Bitiruv malakaviy ish rahbari quyidagilarni bajaradi:

- topshiriq beradi;
- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;





– talaba bajargan bitiruv malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki boshqa manbalarda aynan ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Ishning ilmiy rahbari tomonidan beriladigan topshiriq shakli universitet o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq bitiruv malakaviy ishi bilan birgalikda davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

4. Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayoni


Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayoni, odatda, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- adabiyotlar bilan ishlash;
- reja tuzish, adabiyotlar tahlil;
- tadqiqot usullarini tanlash;
- kerakli tajriba va tadqiqotlarni o'tkazish, ma'lumotlar yig'ish;
- olingan natijalar va to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish;
- xulosa va takliflar ishlab chiqish;
- BMIning qoralama variantini tayyorlash.

BMI topshiriq asosida talaba tomonidan shaxsan bajarilishi lozim. Ish rahbari unga BMIning bajarish jarayonida ilmiy-uslubiy yordam berib boradi, tegishli tuzatishlar kiritadi va u yoki bu masalani hal qilish yuzasidan tavsiyalar beradi.

Ma'lumki, har qanday tadqiqot sohaga tegishli bo'lgan adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. Talaba dastlab topshiriq varaqasida ko'rsatilgan adabiyotlarni sinchiklab o'rganadi, kerakli joylarini konspektlashtiradi. Reja asosida BMI mavzusiga tegishli yangi ma'lumotlarni shu sohaga oid ilmiy jurnallardan va internetdan izlab topadi. Ularni o'rganadi, tahlil qiladi.

BMIning uslubiy-tadqiqot usullarini tanlash ishga qo'yilayotgan talablardan kelib chiqib, talaba o'z mutaxassisligi bo'yicha mavjud usullarni mukammal tahlil qiladi. Uni har taraflama afzalligi va kamchiliklarini aniqlaydi. Shundan keyin rahbar bilan maslahatlashib, kerakli usullarni tanlaydi. Shundan so'ng bu usullar yordamida tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Olingan natijalar maxsus daftarlariga qayd qilib boriladi.



Bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan davlat standarti talablari

1. Bitiruv malakaviy ishida bakalavr tugallangan kasbiy vazifalarni hal qiladi va bunda blok fanlari bo'yicha olingan bilimlardan foydalaniladi.

2. O'rganilayotgan masalaning holati va tarixini tahlil qiladi.

3. Ilmiy nazariy, ilmiy metodik yo'nalishni aniqlab oladi, uning yechilishidagi bir necha variantlarni ko'zda tutadi va ulardan eng muhim variantini tanlaydi.

4. Xulosani shakllantiradi va hal qilingan masala natijalari bo'yicha tavsiyalar beradi va tegishli fan sohasida qo'llanish imkoniyatlarini belgilaydi.

5. Bitiruv malakaviy ishning mavzulari zamonaviy fan yutuqlari va texnologiyasini hisobga olgan holda oliy ta'lim muassasasining mutaxassis tayyorlovchi kafedralari tomonidan tuziladi.

6. Bitiruv malakaviy ishlari mavzusi ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik yo'nalishga qaratilgan bo'lishi mumkin.


7. Bitiruv malakaviy ishning mavzusi bo'yicha vazifalar odatda uchinchi kursni bitirish chog'ida beriladi. Ish umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining o'rganilishi darajasiga ko'ra to'rtinchi kurs davomida ishlab boriladi va ushbu standartda ko'zda tutilgan bitiruv malakaviy ishiga ajratilgan vaqt davomida bajariladi.

2. Bitiruv malakaviy ish mavzularini yaratish va talabalarga biriktirish

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusi mutaxassis tayyorlovchi kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda mavzular ro'yxati yangilanib, har o'quv yili qayta ko'rib chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- mavzuning talaba ta'lim yo'nalishi, ixtisosligiga mosligi;
- dolzarb pedagogik muammoga bag'ishlanganligi;
- boshlang'ich ta'limning amaldagi holati va uni rivojlantirish istiqbollariiga mosligi;
- ta'lim muassasalari va iste'molchilarda qiziqish uyg'otishi va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi.



Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlashda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

- tadqiq etilayotgan muammoning adabiyotlarda yoritilishi va ishlanganlik darajasi;
- universitetda ta'lim olish davrida talabaning kurs ishlari hamda boshqa ilmiy ishlarni bajarish borasida egallagan ko'nikmalari;
- bitiruv ishini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish imkoniyati;
- iste'molchi tashkilot va ta'lim muassasalarining bitiruv malakaviy ish materiallariga qiziqishi va ehtiyoji;
- talabaning imkoniyatlari va nazariy-amaliy tayyorgarlik darajasi.



Malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar va bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Talabalarga malakaviy ishlarning mavzularini tanlash xuquqi beriladi. Innovatsion-korporativ hamkor umumta'lim maktablari ham malakaviy ishlar mavzusi bo'yicha o'z variantlarini taklif etishlari mumkin.

Malakaviy ish mavzusi va ilmiy rahbarni talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Tavsiya qilingan bitiruv malakaviy ish mavzulari:

1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida lirik she'rlarni o'rgatish uslubiyoti.
2. 4-sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan hikoyalarni o'rganish metodikasi.
3. 3-sinf masallarni o'qish darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish metodikasi.
4. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning matematikadan mustaqil ishlarini tashkil qilish metodikasi (1–2-sinflarda).
5. 4-sinf o'quvchilarining imloviy savodxonligini takomillashtirish yo'llari.
6. Boshlang'ich sinflarda ona-Vatan mavzusi bilan bog'liq materiallarni o'rganish yo'llari.
7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy merosdan foydalanish.
8. Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi darsida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish.
9. Birinchi sinf matematika darsligi ustida ijodiy ishlash, darslik tahlini amalga oshirish metodikasi.



10. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

11. Boshlang'ich sinflarda "Tovushlar va harflar" bo'limini o'rganish yo'llari.

12. 1-sinfda o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi.

13. 4-sinfda matematikadan arifmetik amallarni o'rganish metodikasi.

14. Matematika va tabiat ta'lim sohalari bo'yicha integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari (3 – 4-sinf misolida).

15. Ona tili darslarida til materiallarini o'rganishda xalq og'zaki ijodi materiallaridan foydalanish

16. Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

17. Boshlang'ich sinfda axloqiy-estetik tarbiyaning pedagogik-psixologik xususiyatlari.

18. Interfaol metodlar va ulardan boshlang'ich sinf ona tili darslarida foydalanish.

19. 4-sinflarda ilmiy-ommabob maqolalarni o'rganish darslarini tashkil qilish va o'tkazish.


20. 3-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Zumrad bahor – bahri diling ochar" bo'limi materiallarni o'rganish orqali o'quvchilar nutqini o'stirish.

3. Bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik

Bitiruv malakaviy ishiga rahbar oliy o'quv yurtining ilmiy darajali professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari, umumta'lim maktabining yuqori malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan tayinlanadi.

Bitiruv malakaviy ish rahbari quyidagilarni bajaradi:

- topshiriq beradi;
- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;



– talaba bajargan bitiruv malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki boshqa manbalarda aynan ko‘chirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Ishning ilmiy rahbari tomonidan beriladigan topshiriq shakli universitet o‘quv bo‘limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq bitiruv malakaviy ishi bilan birgalikda davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

4. Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayoni


Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayoni, odatda, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- adabiyotlar bilan ishlash;
- reja tuzish, adabiyotlar tahlil;
- tadqiqot usullarini tanlash;
- kerakli tajriba va tadqiqotlarni o‘tkazish, ma‘lumotlar yig‘ish;
- olingan natijalar va to‘plangan ma‘lumotlarni tahlil qilish;
- xulosa va takliflar ishlab chiqish;
- BMI ni qoralama variantini tayyorlash.

BMI topshiriq asosida talaba tomonidan shaxsan bajarilishi lozim. Ish rahbari unga BMI ni bajarish jarayonida ilmiy-uslubiy yordam berib boradi, tegishli tuzatishlar kiritadi va u yoki bu masalani hal qilish yuzasidan tavsiyalar beradi.

Ma‘lumki, har qanday tadqiqot sohaga tegishli bo‘lgan adabiyotlarni o‘rganishdan boshlanadi. Talaba dastlab topshiriq varaqasida ko‘rsatilgan adabiyotlarni sinchiklab o‘rganadi, kerakli joylarini konspektlashtiradi. Reja asosida BMI mavzusiga tegishli yangi ma‘lumotlarni shu sohaga oid ilmiy jurnallardan va internetdan izlab topadi. Ularni o‘rganadi, tahlil qiladi.

BMI ning uslubiy-tadqiqot usullarini tanlash ishga qo‘yilayotgan talablardan kelib chiqib, talaba o‘z mutaxassisligi bo‘yicha mavjud usullarni mukammal tahlil qiladi. Uni har taraflama afzalligi va kamchiliklarini aniqlaydi. Shundan keyin rahbar bilan maslahatlashib, kerakli usullarni tanlaydi. Shundan so‘ng bu usullar yordamida tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Olingan natijalar maxsus daftarlariga qayd qilib boriladi.



5. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash va uning tuzilishi

Mavzu bo'yicha to'plangan adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari to'liq tahlil qilib chiqilgandan so'ng, BMni yozish boshlanadi. BMni yozishdan oldin to'plangan materiallarni izchillik bilan bayon etish uchun reja tuziladi. Rejada mantiqiy ketma-ketlikni saqlagan holda masalaning qo'yilishi, uni hal qilish yo'llari, olib borilgan tadqiqotlar natijalari, chiqarilgan xulosalar aniq va ravshan bayon qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va tuzilishiga quyidagilar kiradi:


- Titul varag'i.
- Bitiruv malakaviy ish bo'yicha topshiriq.
- Mundarija.
- Kirish.
- a) tanlangan mavzuning dolzarbligi;
- b) ishning maqsadi;
- d) ishda belgilangan vazifalar;
- e) amaliy ahamiyati;
- f) ilmiy yangiligi.
- Asosiy qism.
- Xulosa.
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.
- Ilovalar.

Titul varag'i – malakaviy ishning 1-beti hisoblanadi va u 1-ilovada ko'rsatilgan namunaga ko'ra rasmiylashtiriladi (1-ilova). Titul varag'i malakaviy ish umumiy hajmidagi betlar soniga kiradi, ammo betlar raqamlanganda unga raqam qo'yilmaydi

Malakaviy ishga berilgan topshiriqlar – maxsus blanka asosida to'ldiriladi (2-ilova), talaba va ilmiy rahbar tomonidan imzo qo'yiladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mundarijada bitiruv malakaviy ish matnida aks ettirilgan barcha sarlavhalar (ular joylashgan bet raqami bilan) ketma-ketlikda aks ettiriladi: kirish, boblarning nomlari, bob fasllari, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar (3-ilova).

Barcha sarlavhalarining har biri alohida qatorda (bosh harf bilan boshlab) yoziladi.



Har bir sarlavhaning oxirgi soʻzi va u joylashgan bet raqami orasiga koʻp nuqtalar qoʻyiladi (bet raqami qatorning oxirida qoʻyiladi).

Mundarijada kirish, boblarning nomi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati, ilovalar qora katta harflar bilan yoziladi.

“Mundarija” soʻzi sarlavha singari oʻrtada, pastdagi matnga simmetrik tarzda joylashtiriladi va katta qora harflar bilan yoziladi.

Bitiruv malakaviy ishning **kirish** qismida talaba oʻrganayotgan muammoning dolzarbligini va uning ahamiyatini asoslashi kerak. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikda tahlil qilish lozim boʻladi.



- mavzuning dolzarbligi;
- mavzuning oʻrganilganlik darajasi;
- tadqiqotning maqsadi;
- tadqiqotning vazifalari;
- tadqiqotning predmeti va obyekti;
- tadqiqotga qoʻllanilgan metodlar va uning metodologik asosi;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati;
- BMIning tuzilishi haqida umumiy maʼlumotlar beriladi.

Malakaviy ishning **asosiy qismi** 2 bobdan tashkil topadi va ularning har biri ikkitadan kam boʻlmagan fasllardan iborat boʻladi. Fasllar ham qismlarga hamda boʻlaklarga ajratilishi mumkin. **Asosiy qismda tadqiqot yuzasidan** olingan natijalar va ularning muhokamasi yoritiladi. Talaba tomonidan toʻplangan materiallar, statistik maʼlumotlar tahlil qilinadi, olingan natijalar, yangiliklar, gʻoya va fikrlar ilmiy jihatdan asoslanadi. Agar talaba mavzu boʻyicha olgan natijalarni tanqidiy baholay olsa, BMIning qiymati oshadi.

Birinchi bob nazariy-metodologik mazmunga ega boʻladi. Unda bitiruvchi olimlar, tadqiqotchilarining tanlangan muammoga daxldor asarlari, maqolalarini tahlil qilib, muammoning kemptik nuqtasini aniqlaydi, uni hal etishga nisbatan turli yondashuvlar hamda oʻzining shaxsiy nuqtayi nazarini bayon qiladi. Bu bobda oʻrganilayotgan muammo hamda tadqiqot obyekti haqida aniq materiallari asosida uni hal etishning yoʻllari nazariy-metodik jihatdan asoslab beriladi.

Masalan, “2-sinflarda ertaklarni oʻrganishda ilgʻor pedagogik texnologiyalarni qoʻllash” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi “Boshlangʻich sinflarda ertaklarni oʻrganishning nazariy-metodik asoslari” deb nomlanadi. Bu bob oʻz ichiga ikki faslni qamrab oladi. Bu bobda boshlangʻich sinflarda ertaklarni oʻrganishning mazmun-mohiya-

Poligraph service”, 2008.



ti, nazariy-metodik asoslari va 2-sinfda o'rganiladigan ertaklarning mazmun-mundariyasi haqida fikr yuritiladi kabilar.

Ikkinchi bobda tanlangan muammoni hal etish shakllari, metodlari va vositalari bayon etiladi. Tanlangan metod va ishlab chiqilgan metodika asosida olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari, ularning samaradorlik darajasi ko'rsatiladi. Masalan, yuqoridagi ishning "2-sinfda ertaklarni o'rganishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash" deb nomlangan ikkinchi bobi ham ikki fasldan iborat bo'lib, unda 2-sinfda ertaklarni o'rganishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning mazmun-mohiyati, 2-sinfda ertak o'qish darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida loyihalashtirish va ularni tashkil qilish, ertaklarni o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish kabilar xususida so'z bo-radi.

Xulosa – yakunlovchi qism bo'lib, unda malakaviy ishda erishilgan natijalarga ko'ra, nazariy va amaliy xulosalar mantiqiylik va izchillik asosida bayon etiladi. Xulosa va takliflar aniq, asoslangan bo'lishi hamda olib borilgan tadqiqot va malakaviy ish mazmunidan kelib chiqqan holda, qisqa tezis shaklida, alohida-alohida punktlarga ajratib berilishi kerak.



Davlat attestatsiya komissiyasi BMni baholayotganda uning xulosa qismida ishlab chiqarishga aniq amaliy takliflar berganligini alohida e'tiborga olishi zarur.

Xulosadan so'ng, **foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** beriladi. Ro'yxatga faqat ishni yozish jarayonida muallif tomonidan foydalanilgan me'yoriy hujjatlar, adabiyotlar, maqolalar, tezislar, internet manbalari yoziladi. Adabiyotlar ro'yxati belgilangan talabalar asosida rasmiylashtiriladi.

Kitob va monografiyalar uchun:



- muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi bosh harflari, kitobning nomi, nashri, chiqqan joyi, yili, betlari.
- agar mualliflar ikkita bo'lsa, ularning familiyasi keltiriladi. 3 ta va undan ortiq bo'lsa, faqat bitta muallifning familiyasi keltirilib, "va boshqalar" deb yoziladi.


BMda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, avval, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ta'lim sohasiga oid me'yoriy hujjatlar beriladi. Qolgan adabiyotlar alifbo bo'yicha joylashtiriladi. Masalan:



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I. A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash – bugungi hayotning o'tkir talabi. O'zR Prezidentining intervyusi, “Xorazm haqiqati” gazetasi, 2012-yil, 16-may soni.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
5. Barkamol avlod orzusi (tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R.) Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.
6. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim. Toshkent, 2005, 5-son, 5, 6, 8 – 9-betlar.
7. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. Toshkent, 2005, 5-son, 21 – 33-betlar.
8. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. „Boshlang'ich ta'lim”, 1998, 6-son.
9. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2010.
10. Anorboyev A. Badiiy asar – ma'naviy boylik. „Boshlang'ich ta'lim“, 2008, 6-son, 18-bet.
11. Avezov S. Ifodali o'qishga o'rgatish. “Boshlang'ich ta'lim“, 2006, 4-son, 11-bet.
12. Bobomurodov A., Abdullayev H. O'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish. Toshkent, „O'qituvchi“, 1976.
13. Dolimov Z. She'riy asarlarni o'rgatish. “Boshlang'ich ta'lim“, 2008, 6-son, 14-bet.
14. Matchonov S., Shojalilov A. va boshqalar. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Toshkent, “Yangiyul Poligraph servise”, 2007.
15. Matchonov S., G'ulomova X., Dolimov Z. 4-sinfda o'qish darslari. Toshkent, “Yangiyul Poligraph servise”, 2007.
16. Matchonov S. va boshqalar. Boshlang'ich sinfi o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent, “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.





17. Nazarova H., Anorboyeva A. O'qish darsi – nafasot olami. „Boshlang'ich ta'lim“, 2008, 11-son, 5-bet.

18. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "Nosir", 2009.

19. Safarova R. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. Toshkent, 2005.

20. Turdiyev B. 4 – 7-sinflarda ifodali o'qish. Toshkent, "o'qituvchi", 1978.

21. Yo'ldosheva Sh. Kitobda mujassam sehrli hikmat. "Boshlang'ich ta'lim", 2008, 11-son, 4-bet.

22. Internet ma'lumotlari: www.ziynet.uz

Ilovalarda malakaviy ishning asosiy matniga qo'shimcha va yordamchi materiallar beriladi. Ilovalar mazmuniga ko'ra, xilma-xil bo'lishi mumkin: masalan, tadqiqot uchun qo'llanilgan materiallar (anketalar, topshiriqlar, mashqlar, suhbat uchun tuzilgan savollar va boshqa materiallar). Shakliga ko'ra, ular matn, jadval, illustratsiya, grafik, sxema, diagramma ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Malakaviy ish hajmi qo'lyozma ko'rinishida taxminan, 100 betgacha, bosma ko'rinishida 60 – 80 betgacha bo'lishi mumkin (bu haqda keyingi sahifalarda to'liqroq ma'lumot beriladi).

6. Bitiruv malakaviy ishni bajarish bosqichlari:

- tadqiqot metodikasini tanlash, kerakli materiallar va manbalarni to'plash;


- adabiyotlar, me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqish, bibliografiya tuzish;

- materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, birinchi bobni ishlab chiqish;

- tadqiqot olib boriladigan ta'lim muassasasida faktik dalillarni to'plash, tizimlashtirish, tahlil etish;

- tanlangan muammoni yechish uchun muayyan ishlanma, takliflarni asoslash, bitiruv malakaviy ishning predmetini aniqlashtirish va shular asosida ikkinchi bobni ishlab chiqish;

- kirish, xulosa va boshqa tarkibiy elementlarni tartib bilan joylashtirish va ularga kompyuterda ishlov berish (qo'lyozma bo'lsa, materiallarni tartib bilan joylashtirib, rasmiylashtirish);



– himoyaga tayyorgarlik: tugallangan ishni taqriz uchun ilmiy rahbarga taqdim etish, boshqa taqrizlarni yig'ish, chiqish ma'ruzasini tayyorlash, himoyaga olib chiqiladigan illustratsion-ko'rsatmali materiallarni tanlash va ularga ishlov berish.

Bitiruv malakaviy ishni muvaffaqiyatli bajarish adabiyotlar va boshqa manbalarni sinchkovlik bilan ijodiy o'rganish hamda tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha pedagogik amaliyotda qo'llanilayotgan me'yoriy hujjatlarga nisbatan tanqidiy yondashishni nazarda tutadi.



Kerakli manbalarni tanlash talaba tomonidan mustaqil bajariishi maqsadga muvofiqdir. Adabiyotlar va manbalarni tanlashda predmetli kataloglar, shuningdek, elektron va bibliografik spravochniklar, avtoreferat, dissertatsiya, matbuot nashrlarining maxsus kataloglari, monografiyalar, ilmiy maqolalarning to'plamlaridan foydalanish kerak bo'ladi. Ko'proq so'nggi yillarda chop etilgan materillarga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Adabiyotlar ro'yxati ilmiy rahbar bilan kelishgan holda tuzib chiqiladi.

Tanlagan mavzuga oid adabiyotlar va boshqa manbalarni o'rganish davomida talaba alohida varaqlarda malakaviy ishga oid zarur ma'lumotlarni qayd etib boradi. Shu bilan birga, material qaysi manbadan olinganligi va undan malakaviy ishning qaysi qismida foydalanish mumkinligi ham belgilab boriladi. So'zma-so'z ko'chirilgan gaplar sitagaga o'xshab qo'shtirnoq ichiga olinishi, muallif hamda adabiyotning nomi, nashr etilgan yili, nashriyoti, bet raqami to'liq ko'rsatilishi kerak.

Adabiyotlarni o'rganish va konspektlashtirish jarayonida ma'lumotlarni tanlash va guruhlariga ajratish talab etiladi. Bu keyingi ish jarayonida mualliflarning turli nuqtayi nazarlarini tahlil qilish, taqqoslash hamda muammoga o'z munosabatini shakllantirish uchun kerak bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ish yuzasidan talaba mustaqil faoliyatining muhim bosqichi ashyoviy materiallarni to'plash, ularga ishlov berish, tizimlashtirish va tahlil qilish jarayoni bo'lib hisoblanadi. Bu ishni talaba malakaviy amaliyot davomida amalga oshiradi.

Ashyoviy materiallarni to'plashga kirishishdan oldin talaba ilmiy rahbari bilan birgalikda qanaqa ko'rsatkichlarni, qaysi muddatda, qanday ko'lamda tadqiq qilish lozimligini, qanaqa tajribalar o'tkazish kerakligini kelishib oladi. To'plangan ashyoviy materiallar asoslanganligi, ishonchliligi, aniqligiga ko'ra baholanadi, tizimlashtiriladi hamda ularga jadval, grafik, diagramma, shema va h.k. ko'rinishlarda ishlov beriladi.



Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida talaba quyidagilarga rioya qilishi kerak:

- malakaviy ish mavzusini asoslash;
- ilmiy rahbar bilan birgalikda malakaviy ish yuzasidan topshiriqlar to‘plamini ishlab chiqish;
- ilmiy rahbar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan taqvimiy ish reja grafigiga rioya qilish;
- muayyan bo‘limlar bo‘yicha yozilgan ish matnini tekshirish uchun ilmiy rahbarga taqdim etish;
- malakaviy ishning sifati va samaradorligini oshirish uchun ilmiy rahbar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida uning bo‘limlariga o‘zgartirish kiritish;
- malakaviy ishni belgilangan talablarga mos hamda o‘z muddatida bajarish;
- bitiruv malakaviy ishda asoslangan yechimlar, chiqarilgan xulosalar, shuningdek, barcha ma’lumotlarning haqqoniyligi va ishonchliligi-ga kafolat bera olishi;
- belgilangan muddatda ishni to‘liq bajarib, ilmiy rahbarga xulosa berish uchun taqdim etish;
- belgilangan tashqi taqrizchidan malakaviy ish uchun taqrizni olish.


Malakaviy ishni bajarish grafigi doimiy ravishda ilmiy rahbar tomonidan nazorat qilib boriladi. Vaqti-vaqti bilan ishning bajarilish holati to‘g‘risida ilmiy rahbar axboroti kafedra yig‘ilishlarida eshitib boriladi.

7. Bitiruv malakaviy ish himoyasi va uni tashkil etish

Tugallangan bitiruv malakaviy ish talabani shaxsiy imzosi bilan, himoya belgilangan kundan kamida 30 kun oldin ilmiy rahbarga taqdim etiladi.

Ilmiy rahbar taqdim etilgan bitiruv malakaviy ishga xulosa yozadi va unda quyidagilarni ko‘rsatadi:

- mavzuning dolzarbligi;
- belgilangan vazifalarning amalga oshirilganlik darajasi;
- bajarilgan ishga talabani munosabati;
- talabani adabiyotlardan foydalanish va materialni mustaqil bayon eta olish ko‘nikmalari;




- talabanning tadqiqotchilik ko‘nikmalari;
- talabanning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ya’ni pedagogik topshiriqlarni yecha olishi, mustaqil qaror qabul qila olishi va h.k.;
- olingan natijalarning amaliyotda ta’lim jarayoniga qo‘llash imkoniyati hamda talabanning ixtisosligi bo‘yicha beriladigan kvalifikatsiyani olishga loyiqligi (4-ilova).

Bitiruv malakaviy ish ilmiy rahbar xulosasi bilan kafedra mudiriga himoya belgilangan kundan kamida 20 kun oldin topshiriladi. Kafedra mudiri talabaga bitiruv malakaviy ish himoyasiga ruxsat berish masalasini mustaqil hal qiladi yoki uni kafedrada maxsus tashkil etilgan komissiya muhokamasiga (dastlabki himoyaga) yuboradi. Dastlabki himoyada komissiya talabani tinglaydi, bajarilgan ishning unda belgilangan vazifalarga mosligini, talabanning himoyaga tayyorligini aniqlaydi. Agar komissiya ishni va talaba himoyasini qoniqarsiz deb xulosa bersa, ish qayta ko‘rib chiqish uchun beriladi va kamida 6 oydan so‘ng yana himoyaga qo‘yilishi mumkin bo‘ladi.

Agar kafedra mudiri ishni himoya qilish uchun loyiq deb topsa, bitiruv malakaviy ishning titul varag‘iga imzo qo‘yib, tasdiqlaydi. Himoya uchun tasdiqlangan malakaviy ishni kafedra mudiri tashqi taqrizchiga yuboradi. Tashqi taqrizchilar tarkibi malakali va oily toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan tanlanadi va kafedra mudiri tavsiyasiga ko‘ra, fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi. Tashqi taqrizchi ishni ko‘rib chiqishi va taqriz yozishi uchun 10 kungacha vaqt beriladi.

Tashqi taqrizchining bitiruv malakaviy ishga yozgan taqrizida quyidagilar ifodalanishi kerak:

- mavzuning dolzarbligi;
- bajarilgan ishning unda belgilangan vazifalarga mos kelishi;
- materialning mantiqiy bayon etilishi;
- ishga oid manbalarning to‘la va yetarlicha tanqidiy tahlil etilganligi;
- ishning mustaqil bajarilganligi;
- olib borilgan tajriba ishlari samaradorligining to‘la va to‘g‘ri baholanganligi;
- xulosalarning to‘liq izohlanganligi;
- ishning amaliy ahamiyati;
- ishdagi kamchiliklar;
- ishning talab dajarasida rasmiylashtirilishiga izoh;
- ishning himoyaga loyiqligi (5-ilova).



Bitiruv malakaviy ish himoyasiga o'quv rejasini to'liq bajargan, talabalar qo'yiladi.

Bitiruv malakaviy ish himoyasi davlat attestatsiya komissiyasining ochiq yig'ilishida, komissiya a'zolarining yarmidan kam bo'lmagan tarkibi ishtirokida o'tkaziladi. Malakaviy ish himoyasida ilmiy rahbarning ham ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir.

Himoyaga kamida 2 kun qolganda DAKga boshqa hujjatlar bilan birga yana quyidagilar taqdim etiladi:

- bitiruv malakaviy ish;
- ilmiy rahbar xulosasi;
- tashqi taqrizchi taqrizi;
- himoyaga olib chiqiladigan ko'rgazmali materiallar;
- talabaning ilmiy, ijtimoiy va boshqa sohalaridagi yutuqlarini ko'rsatuvchi tezislari, maqolalar va boshqa materiallar.

DAK ochiq yig'ilishini uning raisi (u bo'lmaganda rais o'rinbosari) boshqaradi. DAK raisi bitiruvchining ismi-sharifi, ishning mavzusini e'lon qiladi va talaba himoya uchun so'zga chiqadi. Talabaning chiqish ma'ruzasiga uchun 10 – 15 daqiqa vaqt beriladi.


DAK yig'ilishidagi chiqish ma'ruzasida bitiruvchi talaba quyidagilarni bayon qilib berishi kerak:

- tanlangan mavzuning dolzarbligi;
- tadqiqot obyekti qisqacha tavsifi;
- bitiruv malakaviy ishning nazariy va metodologik asoslari;
- o'rganilgan muammoga oid o'tkazilgan tahlillarning natijasi;
- bitiruv malakaviy ishda belgilangan muammoni hal etish yo'llari hamda natijalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha aniq tavsiflar;
- ishning amaliy ahamiyati (6-ilova).

O'z chiqish ma'ruzasining ishonchliligi, asosliligi va qulayligini ta'minlash uchun talaba jadvallar, chizmalar, grafik tasvirlar, xaritalar va h. k. lardan foydalanishi mumkin.

DAK ga taqdim etiladigan grafik materiallar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- A1 (594 x 841mm) o'lchamli chizma qog'ozda tush yoki flaster yordamida tasvirlangan chizmalar;
- PowerPoint da tayyorlangan slaydlar yozilgan CD-diski;
- har bir DAK a'zosiga taqdim etish uchun A4 (210.0 mm x 297.0 mm) o'lchamli qog'ozga tushirilgan chizmalar.



Talabaning chiqish ma'ruzasi tinglangandan so'ng ilmiy rahbar va rasmiy opponent tomonidan berilgan taqrizlar o'qib eshittiriladi. Keyin esa talaba taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar, DAK raisi, a'zolari hamda yig'ilishda ishtirok etayotgan boshqa kishilarning savollariga javob beradi.

DAK yopiq majlisda bitiruv malakaviy ish himoyasini muhokama qiladi, uni baholaydi va talabaga tegishli kvalifikatsiyani berish to'g'risida qaror qabul qiladi. Shuningdek, DAK talabaga imtiyozli yoki imtiyozsiz diplom berish, uni magistraturaga tavsiya etish hamda talabaga bakalavr darajasini berish to'g'risidagi masala yuzasidan ham tegishli qaror qabul qiladi.


Bitiruv malakaviy ish himoyasiga uzrli sababga ko'ra (hujjatlar taqdim etilgan holda) ishtirok eta olmagan talabalarga fakultet dekani tavsiyasiga binoan universitet rektori ruxsati bilan himoya DAKning keyingi ochiq yig'ilishlaridan biriga ko'chirilishi mumkin.

Himoyaga sababsiz kelmagan talaba qarzdor sanaladi va keyingi o'quv yilida to'lov shartnomasi asosida himoyaga ruxsat etiladi. Talaba universitetni tugatgandan so'ng 3 yil davomida qayta topshirishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan holat sodir bo'lganida bitiruv malakaviy ish mavzusi va ilmiy rahbari to'g'risidagi masala mutaxassis tayyorlovchi kafedra mudiri tomonidan ko'rib chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishni asosiy baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich, ball hisobida
1	BMIning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	Xulosa qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarining mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10



6	Ishni bajarishda grammatik qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyada ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Bitiruv malakaviy ishning rasmiylashtirilishiga oid talablar

Bitiruv malakaviy ish to'liq matn, soddalashtirilgan matn (jadvalar, bo'limlarga bo'lingan) va illyustratsiya (chizma, diagramma, grafik, rasmlar) dan iborat bo'lgan matnli hujjatlar sirasiga kiradi.

Bitiruv malakaviy ish singari matnli hujjatlar A4 (210.0 mm x 297.0 mm) o'lchamli oq qozozda quyidagicha rasmiylashtiriladi: qog'ozning chap tomonidan 30 mm, o'ng tomonidan 10 mm, pastdan va yuqoridan 20 mm joy qoldirib, faqat bir betida agar matn kompyuterda tayyorlansa, Windows tizimi Microsoft Word matn redaktorining Times New Roman 14 kattalikdagi shriftida, 1,5 qator kengligida teriladi. Har bir betdagi qatorlar soni 29 – 32 ta, har bir qatordagi bosma belgisi 60 – 70 tacha bo'lishi mumkin.



Bitiruv malakaviy ishdagi betlar, boblar, fasllar, sarlavhalarining raqamlanishi quyidagicha bo'ladi:

- bitiruv malakaviy ish va shu kabi matnli hujjatlarda betlar, fasllar, fasl osti sarlavhalar, chizmalar, jadvallar, ilovalarning tartibi arab raqami bilan № beligisiz raqamlanadi;

- bitiruv malakaviy ish betlari raqamlanganda raqamlar qog'ozning yuqori qismiga o'rtadan, hech qanday so'z (mas., bet, b.) va tinish belgilarisiz, ko'rinib turadigan tarzda, arab raqami bilan qo'yiladi;

- bitiruv malakaviy ish asosiy matnidagi boblar, fasllar, rejalarining sarlavhalari xat boshidan, bosh harf bilan yoziladi va oxirida nuqta qo'yilmaydi. Sarlavhalar bir nechta gaplardan iborat bo'lmasligi, unda ko'chma so'zlar qo'llanilmasligi kerak;

- bitiruv malakaviy ish tarkibiy qismlarini ko'rsatuvchi sarlavhalar ("bitiruv malakaviy ish bo'yicha topshiriq", "Tushuntirish xati", "Taqriz", "Ilmiy rahbar xulosasi" "Mundarija", "Kirish", "Xulosa", boblar-



ning sarlavhalari, “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”, “Ilovalar”) yangi betdan boshlab yoziladi;

– bitiruv malakaviy ish boblari rim raqami bilan belgilanadi (I BOB);

– bob fasllarida bob raqami va fasl raqami ko‘rsatiladi: 1.1., 1.2. Agar fasllar ham kichik bo‘limlarga bo‘lingan bo‘lsa, 1.1.1., 1.1.2. shaklida belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishdagi jadvallarni rasmiylashtirish

Bitiruv malakaviy ishda, umuman boshqa shu kabi ilmiy ishlarda beriladigan jadvallar katta hajmdagi axborotni tasniflashtirgan, kodlagan, ma’lumotlarni muayyan tartibda jamlagan matn turi bo‘lib hisoblanadi. Jadvallarni tuzish talabdan muayyan tartib-qoidalarni bilishni, ularga amal qilishni nazarda tutadi.

Jadval uni ko‘rsatadigan matn ostida beriladi. “jadval” so‘zi uni ko‘rsatadigan raqam bilan qatorning chap tomonida beriladi va jadval nomi bilan bir qatorda joylashtiriladi, jadval sarlavhasidan keyin nuqta qo‘yilmaydi (mas. 1-jadval. Ta’lim metodlari va usullari tasnifi).

Jadval arab raqami bilan belgilanadi. Jadvalni raqamlaganda bob va fasllar, bo‘limlarning tartibini ham ko‘rsatish mumkin: 1-jadval – bu 1-bob, 1-faslning 1-jadvali degan ma’noni bildiradi.

Agar bitiruv malakaviy ish matnida faqat 1 ta jadval bo‘lsa, u raqamlanmaydi.


Jadvalning ostida, albatta, uni izohlovchi matn ham berilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishdagi illyustratsiyalarning rasmiylashtirilishi

Bitiruv malakaviy ishda ko‘rsatmalilikni ta’minlash, ishning salohiyati va samaradorligini oshirish, katta hajmdagi izohli matnlardan qochish maqsadida chizmalar, rasmlar, sxemalar, diagrammalar, xaritalardan foydalaniladi.

Malakaviy ishda illyustratsiyalar ular eslatilgan matn ostida beriladi. Barcha illyustratsiyalarga izoh berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ilyustratsiyalar “rasm” degan so‘z bilan belgilanadi va butun ish matnida ketma-ketlik asosida arab raqamlari bilan tartib berib boriladi. Ilovada keltirilgan rasmlar alohida raqamlanadi. Agar rasmlar boblar



bo'yicha tartiblashtirilsa, avval bobning raqami, keyin rasmning raqami qo'yiladi: 1.3-rasm.


Rasmdan keyin, albatta, rasm osti matn – sarlavha beriladi: 1.2-rasm. “O'lkamizda qish”.

Bitiruv malakaviy ishda chizma-sxemalardan ham foydalanish mumkin. Ular asosan, shartli belgilar yordamida ifodalanadi va unga xuddi rasm singari tartib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. Toshkent, “O'zbekiston”, 1995.
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1998.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. Тошкент, 1997.
4. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. Тошкент, 1997.
5. O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim konsepsiyasi. Toshkent, 1994.
6. Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. Toshkent, “Istiqlol” nashriyoti bosh tahririyati, 2004.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2010 йил 9 июндаги “Олий таълим муассасаларида бакалаврларнинг битирув малакавий ишини бажаришга қўйиладиган талабларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 225-сонли буйруғи (буйруқ №386 X).
8. Abuzalova M., Toirova G. Malakaviy bitiruv ishi yozish uchun metodik ko'rsatma va tavsiyalar (filologiya fakulteti talabalari va metodistlari uchun mo'ljallangan). Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2007.
9. Ahmedov A. A. Ilmiy tadqiqot asoslari. Qarshi, 2002.
10. Нормуродов М. Т., Хидирова В. Х., Сохибов А. Р. Битирув малакавий иши ва магистрлик диссертацияси. Qarshi, 2012.
11. Tashpulatov S. Sh., Salayeva M. S. va B. Bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash bo'yicha metodik ko'rsatma (514900 – Kasb ta'limi yo'nalishlari bakalavrlari uchun mo'ljallangan). Toshkent, 2010.

Internet saytlari: www.school.edu.ru, www.assol.ru,
www.CADRUS.ru, www.istedod.uz, www.natlib.uz, www.ziynet.uz



ILOVALAR

1-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



Pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy
ish" ta'lim yo'nalishi 401-guruh talabasi

KARIMOVA YULDUZ OTABEKOVNAning

"4-sinflarda ilmiy-ommabop maqolalarni o'rganish darslarini
tashkil qilish va o'tkazish" mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI


**5111700 – "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish"
ta'lim yo'nalishi**

Bakalavr darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar

dots. M. Jumaniyozova

Urganch – 2013-yil



2-ilova


“Tasdiqlayman”

“BTN va M” kafedra mudiri:
_____ dots. S.X.Ollaberganova
_____ yil.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO‘YICHA TOPSHIRIQ

- 1.Kafedra _____
- 2.Ish mavzusi _____
- 3.Bajaruvchi _____
4. Ilmiy rahbar _____
Universitetning _____-yil _____-sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan.
- 5.Yakunlangan ishning topshirish muddati _____
- 6.Bitiruv malakaviy ish yuzasidan topshiriqlarni bajarish jadvali

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati	Rahbarning talaba tomonidan bajarilgan ishining ahvoli haqidagi belgisi, sana, imzo
1.	Mavzuni kafedrada tasdiqlash.		
2.	Bitiruv malakaviy ish mavzusini olish va tadqiqot rejasini tuzish.		
3.	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, uzluksiz ta'lim tizimini isloh qiluvchi davlat hujjatlarini o'rganish.		
4.	Mavzuning nazariy pedagogik-psixologik va metodologik asoslarini o'rganish.		




5.	Yechilayotgan muammoni amalga oshirish uchun aniq didaktik va tarqatuv materiallarini ishlab chiqish.		
6.	Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanish uchun metodologik va pedagogik-psixologik tajribalar o'tkazish.		
7.	Tajriba natijalarini tahlil etish va ishni rasmiylashtirish.		
8.	Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy qismlarini tasdiqlash.		
9.	Bitiruv malakaviy ishni bajarishning borishi nazorati va uning nazariy va amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi.		
10.	Rahbar tomonidan tugallangan malakaviy bitiruv ishini taqrizdan o'tkazish.		
11.	Tugallangan ishni rahbar bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.		

Bitiruvchi talaba

(imzo)

Bitiruv malakaviy ishi rahbari


(imzo)



3-ilova

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. 4-SINFDA O'RGANILADIGAN ILMIY-OMMABOP MAQOLALARNING MUNDARIJASI VA ULARNI O'RGANISH-NING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	
1.1. 4-sinfda ilmiy-ommabop maqolalarni o'rganishning nazariy-metodik	10
1.2. 4-sinfda o'rganiladigan ilmiy-ommabop maqolalarning mundarijasi.....	19
II bob. 4-SINFLARDA ILMIY-OMMABOP MAQOLALARNI O'RGANISH DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH	
2.1. 4-sinfda ilmiy-ommabop maqola o'qish darsining qurilishi.....	28
2.2. Yusuf Xos Hojib "Bahor ta'rifida" maqolasini o'qish darsini tashkil qilish.....	39
2.3. 4-sinfda ilmiy-ommabop maqola o'qish darsini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish.....	48
Xulosa.....	59
Foydalanilgan adabiyotlar.....	60
Ilovalar.....	63



4-ilova

**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA ILMIY RAHBAR
XULOSASI**

Talaba _____

Bitiruv malakaviy ish mavzusi _____

Bitiruv malakaviy ish hajmi _____

Tushuntirish qismi _____

Ilovalar soni _____

Mavzuning dolzarbligi _____

Belgilangan vazifalarning amalga oshirilganlik darajasi _____

Bajarilgan ishga talabanning munosabati _____


Talabanning adabiyotlardan foydalanish va materialni mustaqil bayon eta olish ko'nikmalari _____

Talabanning tadqiqotchilik ko'nikmalari _____

Talabanning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ya'ni pedagogik topshiriqlarni yecha olishi, mustaqil qaror qabul qila olishi va sh.k. _____

Olingan natijalarning amaliyotga ta'lim jarayoniga qo'llash imkoniyati hamda talabanning ixtisosligi bo'yicha beriladigan kvalifikatsiyani olishga loyiqligi _____

Ilmiy rahbar imzosi: _____



5-ilova

Al-Xorazmiy nomli UrDU pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish” ta’lim yo‘nalishi bitkazuvchisi Karimova Yulduz Otabekovnaning “4-sinflarda ilmiy-ommabop maqolalarni o‘rganish darslarini tashkil qilish va o‘tkazish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Mavzuning dolzarbligi _____

Bajarilgan ishning unda belgilangan vazifalarga mos keli-
shi _____

Materialning mantiqiy bayon etilishi _____

Ishga oid manbalarning to‘la va yetarlicha tanqidiy tahlil etil-
ganligi _____

Ishning mustaqil bajarilganligi _____

Olib borilgan tajriba ishlari samaradorligining to‘la va to‘g‘ri
baholanganligi _____

Xulosalarning to‘liq izohlanganligi _____


Ishning amaliy ahamiyati _____

Ishdagi kamchiliklar _____

Ishning talab dajarasida rasmiylashtirilishiga izoh _____

Ishning himoyaga loyiqligi _____

Tashqi taqrizchi imzosi _____




6-ilova

Urganch davlat universiteti pedagogika fakulteti
“Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish” ta’limi yo‘nalishi bitiruvchisi Karimova Yulduz Otabekovna “4-sinflarda ilmiy-ommabop maqolalarni o‘rganish darslarini tashkil qilish va o‘tkazish” mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «____» 2013-yil «____» iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini belgilaydi

№	Baholanadigan bo‘limlar	Eng yuqori ko‘rsatkich, ball hisobida	Komissiya belgilagan, foiz
1	BMI ning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi.	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Ni-zom talablariga mos holda bajarilishi.	35	
3	Xulosa qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi.	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalar-ning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va in-ternet materiallaridan foydalanish.	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi.	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi.	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bil-ganligi. Savollarga berilgan javoblar dara-jasi.	10	
8	BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy semi-narlar va konferensiyalarda ma’ruza (axbo-rot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qi-linganligi.	10	
Jami:			



Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:


1. _____
mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlash-
tirish ko'rsatkichi belgilanish va « _____ » deb baholansin.
2. _____

- DAK raisi: _____
A'zolari: _____

2013-yil « _____ » _____	
Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti	
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrası	
Bitiruv malakaviy ish _____	sonli tartib
raqam bilan qayd qilindi.	
Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi:	
Karimova Yulduz Otabekovna	
Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: "4-sinflarda ilmiy-ommabop maqolalarni o'rganish darslarini tashkil qilish va o'tkazish"	
Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: dots. M. Jumaniyozova	
Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013-yil _____-mayda o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.	
Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch tumani 5-son umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi S. Quronboyeva tayinlandi.	
Kafedra mudiri	dots. S. Ollaberganova
Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.	

Fakultet dekani

dots. A. Xudoyberganov



7-ilova

Talabaning
“.....” mavzuidagi bitiruv malakaviy ishi bo'yicha

CHIQISH MA'RUZASI

Mavzuning dolzarbligi _____



Tadqiqot obyekting qisqacha tavsifi _____

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va metodologik asoslari


O'rganilgan muammoga oid o'tkazilgan tahlillarning natijasi

Bitiruv malakaviy ishda belgilangan muammoni hal etish yo'l-
lari hamda natijalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha
aniq tavsiyalar _____

Ishning amaliy ahamiyati _____




Qaydlar uchun



MUNDARIJA

1. So‘zboshi	3
2. Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.....	4
3. Bitiruv malakaviy ish mavzularini yaratish va talabalarga biriktirish.....	6
3. Bitiruv malakaviy ishga rahbarlik.....	8
4. Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayoni.....	9
5. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash va tuzilishi.....	9
6. Bitiruv malakaviy ish bajarilish bosqichlari.....	14
7. Bitiruv malakaviy ish himoyasi va uni tashkil etish.....	16
8. Foydalanilgan adabiyotlar.....	22
9. Ilovalar.....	23



Muhabbat Jumaniyozova, Anorgul Atajonova

**“BITIRUV MALAKAVIY ISH VA UNI TAYYORLASH”
(Uslubiy ko‘rsatma)**

Muharrir Shernazarova Gulshan

Texnik muharrir Sherali Yo‘ldoshev

Musahhih Tamara Turumova

UrDU noshirlik bo‘limi O‘zbekiston matbuot va axborot
agentligining 2009-yil 19-avgustdagi №148 raqamli buyrug‘i
bilan qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Terishga berildi: 30.04.2014.

Bosishga ruxsat etildi: 8.05.2014.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.

Tayms garniturası. Adadi 150. Buyurtma №.7.

Hisob-nashriyot tabag‘i 3,2.

Shartli bosma tabag‘i 3.

UrDU noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko‘chasi, 14-uy.



Telefon: (8-362)-224-27-58.



UrDU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko‘chasi, 14-uy.

Telefon: (8-362)-224-27-58.





ISBN 978-9943-4033-8-3



9 789943 403383

